

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASHDA MOLIYAVIY INSTITUTLARNING YANGI LOYIHALARI

Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchi

Tel: +998998156860

e-mail: tajiddinov84@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14903795>

Annotatsiya: Innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so'mgacha grant mablag'larini ajratish; "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida yakka tartibdagi tadbirkorlarga naqdsiz shaklda konversiya amaliyoti orqali xalqaro "Biznes karta"ga o'tkazib berish yo'li bilan milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risida ma'lumot.

Kalit so'zlari: innovatsiya, startap, bank, valyuta, tadbirkorlik, kredit, asbob-uskunalar, bino-inshootlar, likvidlik.

Annotation Commercialization of innovative developments, allocation of grant funds to high-tech startup projects within the framework of State Scientific Programs up to 2 billion rubles; information on the procedure for lending to individual entrepreneurs in the ATB system in national currency by transferring them to an international "business card" through the practice of conversion in non-cash form.

Keywords: innvation, startup, bank, currency, entrepreneurship, credit, equipment, building-facilities, liquidity.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlar mavjud, oxirgi yillarda chiqqan Prezident farmonlari, Vazirlar maxkamasining qarorlari tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kredit tizimida ko'pgina o'zgarishlar va rivojlanishlarni ko'rsatib berdi. 2023 yil 14 sentabr PQ-306-son O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Farmoni e'lon qilindi unda, Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash, kompleks dasturining tashkiliy-institutsional tuzilmasi, Dasturni 2023 — 2026 yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag'lari yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Bir yil mobaynida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta'lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari va oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o'z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishlari takidlab o'tilgan.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashda:

Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so'mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 million so'mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so'mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati berilgan;

qiymati 1,5 milliard so'mgacha bo'lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan qarzga berish;

24 oydan ortiq faoliyat yuritayotgan va oxirgi 12 oyda aylanma mablag'lari miqdori 1 milliard so'mdan 10 milliard so'mgacha bo'lgan hamda kamida 10 nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan kichik tadbirkorlik subyektlarining yangi loyihalariga va mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga oid loyihalariga bo'sh turgan davlat mulki obyektlari va yer maydonlari, asbob-uskunalar, bino-inshootlar va boshqa ko'rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20 foizgacha, biroq 1 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan qiymatda ulushdor bo'lib kirish;

innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so'mgacha grant mablag'larini ajratish dasturida ishlab chiqilgan.

Asosiy qism

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida yakka tartibdagi tadbirkorlarga naqdsiz shaklda konversiya amaliyoti orqali xalqaro “Biznes karta”ga o‘tkazib berish yo‘li bilan milliy valyutada kreditlash tartibi to‘g‘risida ma‘lumot.

Kredit muddati - kreditlarning maksimal muddati 12 (o‘n ikki) oy qilib belgilanadi. Kreditlar muddatini asossiz ravishda uzaytirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

YaTT faoliyati bilan shug‘ullanuvchi 6 (olti) oydan kam bo‘lmagan ish tajribasiga ega, to‘lovga qobiliyatli tadbirkorlar kreditlash sub'yektlari hisoblanadi.

Kreditning imtiyozli davri - biznes reja va import shartnomasidagi tovarlarini yetkazib berish muddatidan kelib chiqqan holda aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun 30 bank ish kunidan oshmagan holda belgilanadi.

Kredit maksimal summasi - milliy valyutada 100 000 (yuz ming) AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda filiallarning vakolati doirasida ajratiladi.

Foiz stavkasi - imzolangan kredit shartnomaga muvofiq belgilanadi.

Kredit ta‘minoti - kredit ta‘minoti sifatida kredit summasining 125% miqdoridan kam bo‘lmagan bank uchun maqbul yuqori likvidli ta‘minot qabul qilinadi.

Kredit maqsadi - aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun.

YaTTlarning xalqaro “Biznes karta”lariga o‘tkazib berilgan xorijiy valyutadagi mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi hududida mahsulotlar sotib olinishi yoki naqd pul shaklida yechib olinishi taqiqlanadi, mablag‘larning ishlatilmagan qismini bankka qayta sotish bundan mustasno.

Kreditlar ajratish Bank va YaTT o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomasida belgilangan shartlar asosida amalga oshiriladi.

Pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari

Inflyatsiya bo‘yicha target belgilanadi va barcha pul-kredit siyosati choralari ushbu targetga erishishga qaratiladi;

Markaziy bankning asosiy stavkasi pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti hisoblanadi;

Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi;

Pul-kredit siyosatiga oid qarorlar keng qamrovli makroiqtisodiy tahlil va prognozlarga asoslanadi;

Markaziy bank valyuta siyosatini erkin suzuvchi valyuta kursi rejimida amalga oshiradi;

Pul-kredit siyosati shaffof tarzda olib boriladi va har bir qaror keng jamoatchilikka batafsil tushuntiriladi.

Hulosa

Iqtisodiyotni rivojlanishida banklar, moliya tashkilotlari tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonida o‘zlarining ishlab chiqqan yangi kredit texnologiya jarayonlarini ko‘rsatib kelmoqda. Bu texnologiya bo‘yicha barcha tadbirkorlar o‘zlarining biznes g‘oyalarini amalga oshirib kelmoqdalar. Hozigi rivojlangan raqamli iqtisodiyot davrida, tadbirkorlar o‘zlarining biznes tamoyillarini uzoq muddatga ishlab chiqmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida, PF-5992,12.05.2020 y
2. “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash” PQ-306-son 14.09.2023 y
3. Internet ma‘lumotlari, Markaziy bank.
4. (Farmon 2018) “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. (Qaror 2018) “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
6. Pul va banklar; A.A.Omonov, .M.Qoraliyev; Toshkent, Iqtisod-moliya, 2019 y.



7. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari, o'quv qo'llanma; Toshkent, ilm ziyo, 2017
y